

ROSSIYA VA O‘ZBEKISTON MUNOSABATLARI

Boyto'rayev Sirojiddin Usmon o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute o'qituvchisi

Ishxujayev Nurbek Sherzod o'g'li

Safarboyev Azamat Anvar o'g'li

DTPI Pedagogika fakulteti

Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: O‘zbekiston – Rossiya aloqalari uzoq, tarixga ega. Oltin O‘rda davlati sohibqiron Amir Temur zarbalari ostida barham topganidan keyin Rus davlati bilan O‘rta Osiyo o‘rtasida elchilik munosabatlari o‘rnatishga harakat boshlandi. 1464-yil Rus hukumati o‘z elchilarini bu yerga yubordi. 1490-yil temuriy Sulton Husayn Boyqaroning elchilari Moskvaga bordi. 16-asr o‘rtalarida Rus davlati Ashtarxon (Astraxon) va Kozon xonliklarini bosib olganidan keyin ikkala tomon birbiriga chegaradosh va qo‘shni bo‘lib qoldi. Rus davlati ham Buxoro va Xiva xonliklari bilan aloqalardan manfaatdor edi.

Kalit so‘zi: Rossiya - O‘zbekiston, MDH, Shavkat Mirziyoyev, Vladimir Putin, Markaziy Osiya, Yevropa.

Kirish: Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Vladimir Putin O‘zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida keng qamrovli strategik sheriklik to‘g‘risidagi deklaratsiyani imzoladilar.

Mazkur deklaratsiya O‘zbekiston va Rossiyaning ko‘p qirrali hamkorligi rivojida yangi bosqich boshlanganidan dalolat beradi. Unda o‘zaro aloqalarga alohida e‘tiborga molik yaqin va jadal hamkorlik sifatida qaralishi qayd etilgan.

Xususan, siyosiy, savdo-iqtisodiy, atom energetikasi, transport, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni aniq yo‘nalishlar asosida rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Umuman, O‘zbekiston–Rossiya munosabatlarining shartnomaviy-huquqiy asosini 350 dan ziyod hujjat tashkil qiladi.

20-asrning 90-yillaridan ikki mamlakat o‘rtasida teng huquqli aloqalar o‘rnatila boshladi. O‘zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1998, 2001 va 2004-yillarda Rossiyaga qilgan tashriflari, Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning 2000 va 2003-yillarda O‘zbekistonda bo‘lgan vaqtida erishilgan bitimlar va imzolangan hujjatlar ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy, ilmiy va madaniy hamkorlikda huquqiy asosni yaratdi. 2003-yil O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasida tovar ayirboshlash hajmi 1 mlrd. 149,1 mln. AQSH dollariga yetdi. O‘zR dan Rossiyaga paxta tolasi, yengil avtomobil, mevasabzavot mahsuloti va boshqa yuboriladi.

Rossiyadan mexanik va elektr mashinauskuna, transport vositalari, qora metall, plastmassa va undan tayyorlangan mahsulotlar, doridarmon, yog‘och, kimyo sanoati mahsulotlari va boshqa keltiriladi. Ikki mamlakat ishbilarmonlarining hamkorligi tufayli O‘zbekiston Respublikasida 520 ta qo‘shma korxonalar barpo etilgan.

(MDH) — davlatlararo tashkilot. 1991-yil 8-dekabrda Minskda Belarus, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan. Ana shu davlat rahbarlari imzo chekkan Bitimda SSSR chuqur tanazzulga uchrab parchalanib ketish natijasida yo‘q bo‘lganligi qayd qilindi, uchala davlat siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga intilishini bayon etdi. 1991-yil 21-dekabrda Bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston qo‘shildi, ular Belarus, Rossiya va Ukraina bilan birga MDHning maqsad va qoidalari to‘g‘risidagi Deklaratsiyaga Olmaota shahrida imzolashdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasiga keldi. Moskva shahridagi “Vnukovo” aeroportida davlatimiz rahbarini Rossiya hukumatining rasmiy shaxslari kutib oldi.

Tashrif dasturiga muvofiq, 23-iyun kuni kechqurun Kremlda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan muzokaralar bo‘lib o‘tdi. Unda ko‘p qirrali O‘zbekiston - Rossiya hamkorligining dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi. 24-iyun kuni davlatimiz rahbari fashizm ustidan qozonilgan Buyuk G‘alabaning 75 yilligi munosabati bilan tantanali tadbirlarda ishtirok etdi. Rossiya va MDHga a‘zo mamlakatlar bilan hamkorlik O‘zbekiston tashqi siyosatidagi eng ustuvor yo‘nalishlardan. O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasida savdo, iqtisodiyot, energetika, qishloq xo‘jaligi, ta‘lim, madaniyat va boshqa sohalaridagi hamkorlikka doir ikki yuzdan ziyod hujjat qabul qilingan. 2004-yil 16-iyunda imzolangan “Strategik sheriklik to‘g‘risida”gi shartnoma, 2005-yil 14-noyabrda imzolangan “Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risida”gi shartnoma ularning eng muhimlaridir.

Mamlakatlarimiz BMT, MDH, SHHT kabi xalqaro tuzilmalar doirasida ham samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Mintaqalararo aloqalar ham jadal rivojlanyapti. Rossiya Prezidentining 2018-yili mamlakatimizga tashrifi chog‘ida Toshkentda ikki davlat rahbarlari ishtirokida O‘zbekiston — Rossiya hududlararo hamkorlik forumi o‘tkazildi. Bu Rossiya Federatsiyasi subyektlari va O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy-hududiy birliklari o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot uchun doimiy maydonga aylandi. Buning amaliy tasdig‘i o‘laroq, Rossiya mintaqalari rahbariyatlari darajasida, jumladan, Checheniston Respublikasi va Tatariston rahbarlari, Sankt-Peterburg, Chelyabinsk, Ivanovsk, Orenburg va boshqa viloyatlari gubernatorlari bilan 20 dan ortiq ikki tomonlama tashriflar amalga oshirildi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonning viloyatlari Rossiyaning 70 dan ziyod subyektlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘ygan. 2019-yilda O‘zbekiston tashqi savdosida Rossiyaning ulushi 17 foizni tashkil etdi. Binobarin, Rossiya

O‘zbekistonning yetakchi savdo sherigi bo‘lib qolmoqda. O‘zaro tovar ayirboshlashning ijobiy dinamikasini inobatga olgan holda, savdo hajmini 10 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo‘yilayotir.

Rossiya Federatsiyasi bilan fan, ta‘lim, madaniyat, san‘at, sport, turizm sohalaridagi hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Ikki davlat xalqlari bir-birining madaniyati va adabiyotiga hurmat bilan qaraydi. Moskva shahrida buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy, poytaxtimizda rus shoiri Aleksandr Pushkin haykali qad rostlagan. Mamlakatimizda Rossiyaning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari filiallari ochilgan. Ta‘lim sohasidagi hamkorlik tufayli 2019/2020 o‘quv yilida 100 nafarga yaqin mamlakatimiz yigit-qizlari Rossiyadagi oliy ta‘lim dargohlarida tahsil oladigan bo‘ldi.

Toshkentda mamlakatlarimiz tarixida ilk bor Ta‘lim forumi bo‘lib o‘tdi. Unda Rossiyadagi 80 dan ortiq yetakchi oliy o‘quv yurtlari vakillari qatnashdi. Dunyoning biror bir mamlakati bilan Rossiya bilan bo‘lgani kabi madaniy-gumanitar aloqalar bu qadar keng emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil aprel oyida Rossiyaga davlat tashrifi chog‘ida qiymati 16 milliard dollarlik hujjatlar imzolangan edi. Tasdiqlangan loyihalarning ko‘pchiligi sanoat va energetika sektorida ro‘yobga chiqarilyapti. Iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha ikki tomonlama dastur doirasida hududlar va ishbilarmonlar darajasida umumiy qiymati 13 milliard dollardan ziyod yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Bugun Rossiyaning “Gazprom”, “Lukoil”, “Forus”, “Tatneft”, “Silovyye mashiny”, “Kamaz”, “Yevrotsement”, “Ekokultura”, “Gazprombank”, “VEB” va boshqa ko‘plab yetakchi kompaniya va banklari O‘zbekiston bilan faol hamkorlik qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi parlamenti bilan Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Davlat dumasi o‘rtasidagi aloqalar bo‘yicha parlamentlararo do‘stlik guruhi tuzilgan.

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston va Rossiya Prezidentlarining siyosiy irodasi ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirishda poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. 2020-yil 15-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Kamilov Markaziy Osiyo mamlakatlari va Rossiya tashqi siyosat idoralari rahbarlarining videokonferensiya shaklidagi uchinchi uchrashuvida ishtirok etdi. Tadbirda, shuningdek, Qirg‘iziston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Ruslan Kazakbayev, Qozog‘iston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Muxtar Tleuberdi, Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov, Tojikiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Sirojiddin Muhriddin va Turkmaniston Tashqi ishlar vaziri Rashid Meredov qatnashdi.

Uchrashuv davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari va Rossiyaning siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, energetika, migratsiya, madaniy-gumanitar, xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-epidemiologik farovonlikni ta'minlash sohalarida o'zaro aloqalarini yana-da mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama etildi. O'zbekiston TIV rahbari uchrashuv ishtirokchilariga mamlakatimizda koronavirus infeksiyasiga qarshi samarali kurashish, pandemiyaning iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohadagi salbiy oqibatlarini yumshatish, hududlarda infratuzilma loyihalarini amalga oshirish orqali aholi bandligini ta'minlash, korxonalar va milliy eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida ma'lumot berdi.

Afg'onistondagi tinchlik jarayonini qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi, bunda Afg'onistonni mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikka yana-da jalb qilish muhim omil hisoblanishi qayd etildi.

Tadbir yakunida «Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vazirlarining hamkorlikning strategik yo'nalishlari to'g'risidagi bayonoti» qabul qilindi, deb xabar beradi Tashqi ishlar vazirligi matbuot xizmati.

Qayd etilishicha, Rossiya universitetlari 2024 yilda o'zbekistonlik talabalar uchun ta'lim uchun 800 ta byudjet kvotasi ajratadi. U, shuningdek, O'zbekiston Rossiya oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun kelgan talabalar soni bo'yicha yetakchi ekanligini ta'kidladi.

Shuningdek, Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi qishloq xo'jaligi bo'yicha o'zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb 1,3 milliard dollarga yetdi. Rossiya O'zbekistondan meva-sabzavot yetkazib berishning asosiy bozori bo'lib qolmoqda. O'zbekiston eksportining umumiy hajmidagi ulushi 39,9 foizni tashkil etadi", — dedi Rossiyaning O'zbekistondagi elchisi Oleg Malginov.

Elchining so'zlariga ko'ra, YEOII bugungi kunda o'zbek mahsulotlarini eksport qilishning asosiy yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Shuningdek, u O'zbekistonning Ittifoqqa to'laqonli a'zo bo'lishi tarif, notarif, bojxona va boshqa to'siqlarni bartaraf etish imkonini berishini ta'kidladi.

Shavkat Mirziyoyev va Vladimir Putin yil davomida sakkiz marotaba telefon orqali suhbatlashishdi va O'zbekiston prezidenti tashriflari davomida ikkita ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazishdi;

Rossiyaning 25 ta yuqori darajali delegatsiyasi (vazirlar, hudud rahbarlari) O'zbekistonga tashrif buyurdi;

MDH hukumat rahbarlari uchrashuvi, Sochi va Moskvada;

Rossiya hukumati raisi Mixail Mishustin va O'zbekiston bosh vaziri Abdulla Aripov boshchiligidagi hukumatlararo uchrashuv;

Rossiya bosh vazir o'rinbosari Denis Manturov va O'zbekiston bosh vaziri o'rinbosari Jamshid Xodjayev boshchiligidagi hukumatlararo komissiya uchrashuvi;

Valentina Matviyenko va Tanzila Narbayeva boshchiligidagi parlamentlararo delegasiyalar uchrashuvi;

O‘zbekiston prezidenti saylovi davomida Rossiya Federasiya Kengashi, Dumasi, MSK va Jamoatchilik palatasi vakillari O‘zbekistonga tashrif buyurishdi;

Xavfsizlik kengashlari rahbariyati Nikolay Patrushev va Viktor Maxmudovlar tomonidan uchrashuv va doimiy dialog saqlanib turibdi;

Mudofaa vazirlari uchrashuvlari va hamkorligi ham doimiy xarakterga ega;

Tashqi ishlar vazirlari ham o‘zaro tashriflar va doimiy aloqalarni saqlab qolmoqda;

Xalqaro miqyosda, jumladan BMT doirasida ham o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik davom etmoqda;

Rossiya BMT rivojlanish dasturlari doirasida O‘zbekistonga yordam ko‘rsatishda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘z.ME Birinchi jild. Toshkent 2000-yil O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Sh. Ergashev “Jahon tarixi, yangi davr 1- qism” “O‘zbekiston” Toshkent – 2013.
3. T. O‘. Salimov Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari V – XV asrlarda Universitet Toshkent – 2014.
4. Prof. V. F. Semyonov “O‘rta Asrlar tarixi” O‘qituvchi” Toshkent